

VATAN SEVGISI-IYMON BELGISI

D. A. Karimova

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti

Inson dunyoga kelmasidan avval onaning vujudida ulg'aysa, dunyoga kelganidan keyin esa endi Ona Vatanda unib o'sadi. Kishining tug'ilganda kindik qoni to'kilgan yer uning Vatani hisoblaniladi. Ona vatanini sevis, undagi bor narsalarni ardoqlash va sog'inib yashashlik insoniyat fitratida mavjud bo'lgan nozik his-tuyg'udir. Qayerga bormasin kishi o'z vatanini baribir qo'msayveradi. Chunki, inson dunyo yuzini ko'rgach birinchi bo'lib vatanidagi havodan nafas ola boshlaydi, vatanidagi tuproqda ilk qadamlarini qo'yib yurishni o'rganadi, dunyoni tanishni shu vatanni anglashdan boshlaydi. Ilk kindik qoni to'kilgan, dastlabki qadamlarini qo'ygan tuproqni himoya qilishlik barchamizning Vatan oldidagi insoniylik burchimiz hamdir.

Mustaqillik tufayli biz o'zimizning haqiqiy Vatanimizni topdik. Bu mustaqillikning bizga bergan eng oliy ne'matidir. Vatani mustaqil xalqning o'zi ham mustaqil bo'ladi. Yurti ozod va erkin odamning erki o'z qo'lida bo'ladi.

Mustaqillik-xalqimizda, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh barkamol avlodimizda vatanparvarlik to'yg'ularining tiklanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Hozirda vatanparvarlik o'zining qanday qirralari bilan namoyon bo'lmoqda? Vatanparvarlikning mohiyati nimalarda, qanday amaliy ishlar faoliyatida namoyon bo'ladi? Umuman vatanparvarlik nima, uni qanday tushunmoq kerak?

Hozirgi kunda mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining mavqei tobora yuksalib bormoqda. Yosh avlod ongiga Vatanga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini singdirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda an'ana va urf-odatlarimizdan yoshlar tarbiyasida foydalanish hozirgi davrning muhim masalalaridan hisoblanib, bu o'rinda tarbiya muhim rol egallaydi. Talabalarni

haqiqiy fuqaro etib tarbiyalash, ularda vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirish, fidoiy, vatanparvar fuqaro sifatida tarbiyalash evaziga ta'rinlanadi. Yosh avlodda vatanparvarlik hissi va e'tiqodini tarbiyalamay turib, ularda axloqiy, xulqiy odatlar va ko'nikmalarni shakllantirib bo'lmaydi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Tinchlik va osoyishtalikni asrab-avaylash, himoya qilish faqat muayyan sohalar xodimlarining vazifasi deganlar qattiq yanglishadilar. Bu yo'lda barchamiz, butun xalqimiz yanada jips bo'lib, hamjihatlikda harakat qilishimiz kerak. O'z uyingni o'zing asra degan gapda hikmat ko'p, uning ma'nosi keng. Zero tinchlik uchun kurashish kerak, uni hech kim yaratib bermaydi",- deganlarida qanchalik haqiqat yotibdi.

Yurt tinchligini himoya qilishda har bir soha vakillari o'z sohasi doirasida hissa qo'shishlari lozim. Masalan, o'qituvchilar o'quvchilarga vatan yagonaligi, vatan himoyasi muqaddas burch ekanini tushuntirib borsa, o'sib kelayotgan yosh avlod vatanga sadoqat hissi bilan o'sib-ulg'ayib boradi. Natijada kelajak avlodlarimiz yurt himoyasi naqadar ulkan vazifamiz ekanini qalbdan his qiladilar va bunga qattiq bel bog'lagan vatanparvarlar bo'lib kamol topadilar. Mutafakkirlardan biri shunday degan ekan: "Vatanparvar-o'z vatani kamoloti yo'lida o'z xalqiga muhabbati tufayli moli, kuch-g'ayrati tugul jonini ham ayamaydigan, xalqi va vatanining ozodligi, farovonligi uchun bor budini fido qiluvchi insondir". Bunday vatanparvarlari bor yurt esa doimo tinch, osmoni musaffo, xalqi ahl, rizqi mo'l, hayoti esa farovon bo'ladi. Bundan tashqari muqaddas dinimizda vatanni himoyalash muqaddas burch qilib belgilanib, bu xizmati uchun juda katta mukofotlar va'da qilingandir. Jumladan, Imom Taboroniy rivoyat qilgan hadisi sharifda Rasulluloh (s.a.v.) shunday marhamat qilganlar: «Alloh taolo roziligi

yo'lida bir kun chegara hududida posbonlik qilish bir oy kechalari ibodat qilib, kunduzlari nafl ro'za tutishdan afzaldir».

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish, mazkur yo'nalishda davlat va nodavlat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faolligini yanada oshirish, yoshlar ongida vatanparvarlik, mardlik tuyg'ularini singdirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 29-iyundagi 267-sonli qarori qabul qilindi. Bu qarorda belgilangan vazifalarni bajarish vatanda yashayotgan har bir fuqaroning burchidir. Yoshlarni "Vatan-ulug', burch- muqaddas!" konseptual g'oya ostida tarbiyalash, har tomonlama rivojlantirish, qat'iy fikr va e'tiqodga ega shaxsni shakllantirish ta'lim muassasalari xodimlariga alohida vazifalar yuklaydi.

Bugungi kunda bizning Kimyo kafedramiz professor-o'qituvchilari tomonidan yuqoridagi qaror va unda belgilab berilgan vazifalarni bajarish yo'lida qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Vatan-sajdagoh kabi muqaddasdir, Vatanim-O'zbekiston kabi mavzularda davra suhbatlari, ma'naviy-madaniy tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda. Shuningdek, Navoiy shahridagi umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy merosihanda ularning vatan ravnaqi yo'lidagi xizmatlarini keng targ'ib qilish maqsadida, Amir Temur, Alisher Navoiy va boshqa ajdodlarimizning tavallud ayyomlari kunlarida vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaviy tadbirlar o'tkazib kelishmoqda.

Xulosa o'rnida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning "Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda" degan jumllarini keltirib o'tamiz.

References

1. Sayfullayeva Gulhayo Ixtiyor qizi Namozova Nilufar Tuxtamurodovna Astronomiya fanini o'qitishda elektron darsliklarning o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklari// Journal of Universal Science Research 1 (10), 873-877
2. Н Намозова, Г Сайфуллаева Астрономия фанига интеграциялашган медиатаълимнинг фаолиятли тузилмаси// бюллетень педагогов нового Узбекистана 1 (7), 21-23
3. Aziza Bozorova, Gulhayo Sayfullayevakredit-Modul Ta'lim Tizimida Talabalarning Mustaqil Ta'lim Jarayonini Tashkil Etish// Бюллетень студентов нового Узбекистана, 2023
4. Н Намозова мактаб астрономия фанига интеграциялашган медиатаълимдан фойдаланиш //TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2023
5. Haydarova Dilorom, Sayfullayeva Gulhayo python dasturida astronomiyadan animatsiya yaratish // Journal of Universal Science Research, 2023
6. Haydarova Dilorom, Sayfullayeva Gulhayo ways to effectively organize speech culture of the astronomy teacher// FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, 2023
7. Q Surayyo, X Sevinch, S Gulhayo Astronomiyada ishlatiladigan amaliy innovatsion dasturlar haqida asosiy tushunchalar va ularning imkoniyatlari //Journal of Universal Science Research, 2023
8. H Dilorom, S Gulhayo Teaching methodology of the subject" motion, phases and periods of the moon".// JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE
9. Shodiyev Hamza Rozikulovich1 Sayfullayeva Gulhayo Masofaviy ta'limda yer mavzusini integratsion yondashuv asosida topish metodikasi Journal of Academic Research and Trends in

Educational Sciences (JARTES) VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

10. G. I. Sayfullayeva, N.T. Namozova // Fizikani o'qitishda keys- stadi metodining echimi va tahlili qilish varianti// Central asian research journal for interdisciplinary studies 2022 y
11. G. I. Sayfullayeva, H.R. Shodiev // Masofaviy ta'limda Yer mavzusini integratsin yondashuv asosida topish metodikasiJournal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES) 2022 y
12. G. I. Sayfullayeva, S.X. Mirzaqandova // The solution and analysis option of the case studies method in teaching the subject of kepler's laws from astronomy// Neuroquantology | october 2022 | volume 20 | issue 12 |page 3170-3174| doi: 10.14704/nq.2022.20.12.nq77320
13. G. I. Sayfullayeva, O'.K. Sunnatova // Astronomiyadan Kepler qonunlari mavzusini o'qitishda Keysstadini metodini echimi va tahlil qilish varianti //International Conference on Developments in Education Hosted from Toronto, Canada [https: econferencezone.org](https://econferencezone.org) 27th Nov. 2022
14. G. I. Sayfullayeva, S.Q. Qahhorov // Fizika va astronomiya fanini o'qitishda integratsiyalashgan yondashuv// Fizika fanini axborot va innovatsion texnologiyalar muhitida o'qitishning zamonaviy tendensiyalari: Muammo va yechimlar mavzusidagi Respublika ilmiy- amaliy anjumani 24- noyabr 2022
15. G. I. Sayfullayeva, A.M. Bozorova // Quyosh sistemasi va Quyosh mavzusini STEM ta'lim tizimidan foydalanib o'qitishning afzalliklari // Development and innovation scientific online journal 2022 y
16. G. I. Sayfullayeva, A.M. Bozorova // STEM ta'lim tizimidan foydalanib Quyosh sistemasidagi sayyoralar mavzusini o'qitish// Development and innovation scientific online journal 2022 y
17. G. I. Sayfullayeva, A.M. Bozorova // Astronomiyadan STEM dasturidan foydalanib quyosh soati mazusini o'qitish// Yosh tadqiqotchi jurnali 2022 y
18. G. I. Sayfullayeva, A.M. Bozorova // Teaching the subject of the heliocentric theory of the universe using the stem education system// Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences 2022 y
19. G. I. Sayfullayeva, A.M. Bozorova // Astronomiya fanini o'qitishda STEM ta'lim tizimining roli va ahamiyati // Pedagog respublika ilmiy jurnali 2022
20. G. I. Sayfullayeva, A.M. Bozorova // Astronomiyada STEM dasturidan foydalanib yulduzlar osmonining surilma xaritasi mavzusini o'qitish// Pedagog respublika ilmiy jurnali 2022 y
21. O'. K. Sunnatova, G. I. Saifullayeva Research in students in physics and astronomy classes and the development of competencies of the XXI century. Ways of organizing project activities of students in physics education Uzbek Scholar Journal Volume-24, January, 2024 www.uzbekscholar.com 101-108
22. Sayfullayeva Gulhayo Ikhtiyor kizi, Bozorova Aziza Murodilla kizi The practical importance of an integrative approach to teaching astronomy from a small school age uzbek scholar journal volume-24, january, 2024 www.uzbekscholar.com 130-133
23. Saifullayeva Gulhayo volunteer daughter Interactive Applications From Astronomy And Ways To Manage Them Uzbek scholar journal volume- 24, january, 2024 www.uzbekscholar.com 123-129
24. Sayfullaeva Gulkhayo Ikhtiyor kizi METHODOLOGY OF APPLYING MATHCAT, MAPLE MATHEMATICAL PACKAGES TO PRACTICAL COURSES FROM ASTRONOMY SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 3 MARCH 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ

25. Malikova Muhabba, Sayfullaeva G.I. MODERN FORMS OF ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK OF STUDENTS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 3 ISSUE 1 JANUARY 2024 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ
26. Sayfullayeva Gulkhayo Ikhtiyarovna, 2Bozorova Aziza Murodullaevna THE USE OF STEAM TECHNOLOGY IN LABORATORY CLASSES IN PHYSICS AND ASTRONOMY SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 11 NOVEMBER 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ
27. Rashidova Nilufar Normurodovna, Saifullayeva Gulhayo Ikhtiyor Kizi ADVANTAGES OF INDEPENDENT EDUCATION IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 12 DECEMBER 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ.